

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son Oilaviy shifokorlik, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrasining ZOOM platformasi orqali o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'yicha Ma'rifat darsi

BAYONNOMASI № 11

10.11.25 yil


Toshkent sh.

Qatnashganlar: Kafedra xodimlari va kafedrada tahsil olayotgan 1- va 2- Pediatriya fakulteti 6-kurs talabalari


Kun tartibi: “Bag‘rikenglik” mavzusida Kelajak soati o‘tkazish.

Eshitildi: Darsning kirish va asosiy qismlarida mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, Davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon etildi.

Bag‘rikenglik – bu boshqalarning fikrini, e’tiqodini, millatini, urf-odatlarini hurmat qilishdir. Bag‘rikeng jamiyatda tinchlik, do‘stlik va totuvlik hukm suradi. O‘zini hurmat qilgan inson boshqalarni ham hurmat qiladi. Har kim o‘z fikriga ega, ammo bag‘rikeng inson boshqalarning fikriga ham quloq tuta oladi.




Zamonaviy globallashuv davrida dunyo xalqlari o‘zaro yaqinlashib, turli millatlar, dinlar, madaniyatlar va fikrlar o‘rtasida bevosita muloqot kuchaymoqda. Bu esa, o‘z navbatida, insonlardan bir-birini tushunish, hurmat qilish va tinch-totuvlikda yashash madaniyatini talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, bag‘rikenglik – zamonaviy jamiyatda nafaqat axloqiy tamoyil, balki, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning zarur sharti sifatida qaralmoqda.



Bag‘rikenglik (tolerantlik) – tushunchasining kelib chiqishi lotin tilidagi “tolerantia” so‘zidan bo‘lib, u “chidam, sabr-toqat” degan ma’noni bildiradi. Bu boshqa odamlarning fikri, e’tiqodi, turmush tarzi yoki qarashlariga, ular biznikidan farq qilsa ham, hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularni tan olish va bironing haqiqatini inkor etmaslik prinsipidir. Bag‘rikenglik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga

keltiradi. Bagʻrikenglik – turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat maʼnaviy burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bagʻrikenglik – urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchi yoʻldir.

Millatlararo totuvlik gʻoyasini amalga oshirishga gʻov boʻladigan eng xatarli toʻsiq - tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli gʻoya tuzogʻiga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi.



Bagʻrikenglikning muhim yoʻnalishlaridan biri “diniy bagʻrikenglik”dir. Turli din vakillari eʼtiqodidagi mavjud farqlardan qatʼiy nazar, ularning yonma-yon, oʻzaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy taʼlimotga hurmat bilan qarashni anglatadigan mazkur tushuncha, har kim oʻz eʼtiqodiga amal qilishda erkin boʻlgani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini eʼtirof etishini nazarda tutadi.

Bagʻrikenglikni hayotimizda, oila davrasida, oliy taʼlim muassasasida, doʻstlar orasida va jamiyatda amalda namoyon etish – bu faqat madaniyat yoki odob-axloq belgisi emas, balki, har bir ongli fuqaroning muqaddas burchi sanaladi. Chunki, bugungi globallashuv davrida turli millat, irq, til va din vakillari bilan bir jamiyatda yashab, ishlash, oʻqish – oddiy holga aylanmoqda. Shuning uchun har qanday kamsitish, hurmatsizlik, adolatsizlikka qarshi murosasizlik bilan kurashishimiz zarur.

Bagʻrikenglik – bu insoniy munosabatlarning eng muhim asosidir. Bugungi zamonning murakkab va tez oʻzgaruvchan dunyosida har bir insonning dunyoqarashi, qadriyatlar va urf-odatlar boshqacha boʻlishi tabiiydir. Ana shunday xilma-xillikni tushunish va qabul qilish, boshqalarni oʻzidan farq qilganligi uchun rad etmaslik, balki, ularga hurmat bilan qarash – bagʻrikenglikning haqiqatidir. Bu nafaqat ijtimoiy birdamlik va tinchlikni saqlash, balki, jamiyatimizni yanada boy va rang-barang qilishga xizmat qiladi. Insonlar oʻrtasidagi munosabatlarda bagʻrikenglik boʻlmasa, tushunmovchilik va nizolar koʻpayadi, doʻstlik va hamjihatlik yoʻqoladi. Shu sababli, har birimiz oʻz qalbimizda bagʻrikenglikni rivojlantirishimiz, boshqalarni oʻzimizdek qabul qilishga intilishimiz zarur. Faqat shunday qilib, biz haqiqiy totuvlik va birlikka erishamiz, kelajak avlod uchun mustahkam va osoyishta jamiyat qura olamiz.

Kafedra mudiri, t.f.d., prof.

Shamansurova E.A.

Maʼnaviyat va maʼrifat ishlari

boʻyicha masʼul, ass.:

Shayxova M.I.